



**BOLALARNING KO'P SAVOL BERISHI SABABLARINI PSIXOLOGIK VA  
PSIXOFIZIOLOGIK O'RGANISH**

Bozorova Ro'zigul Xurramovna

TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi +998 704 96 15

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarining ko'p savol berish sabablarini psixologik va psixofiziologik o'rganiladi. Bolalarga bunday holatlarda qanday javob qaytarish kerakligi to'g'risida ham mulohaza yuritiladi. Ularning savollari javobsiz qoldirilsa, yuzaga keladigan salbiy oqibatlar to'g'risida ham munosabat bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Etnik xususiyat, stress, striotip, regitlik, depressiya, ehtiyoj, tafakkur, ijtimoiy muhit, sotsiogenetik, biogenetik, evolutsiya, ong.

**Annotatsio:** This article examines the psychological and psychophysiological reasons why children ask a lot of questions/ Consideration is also given to how to respond to children in such situations. The negative consequences of leaving their questions unanswered are also expressed.

**Key words:** Ethnikity, stress, stereotype, reactivity, depression, need, thinking, social environment, sociogenetic, biogenetic, evolution, consciousness.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются психологические и психофизиологические причины, по которым дети задают много вопросов. Также рассматривается, как реагировать на детей в таких ситуациях. Также обсуждаются негативные последствия оставления своих вопросов без ответа.

**Ключевые слова:** Этничность, стресс, стигмат, замкнутость, депрессия, потребность, мышление, социальная среда, социогенетика, биогенетика, эволюция, сознание.

Siz o'zingizni qanday ota-onaman deb hisoblaysiz? Ha, albatta, mehribon, jonkuyar, fidoyi va bolalarini jonidan ortiq ko'rvuchi. Xurmatli ota-onalar! Bu siz o'zingizga bergen bahoyingiz hisoblanadi. Ammo, sizni farzandingiz qanday ota-onsa deb hisoblaydi, shunga hech qiziqib ko'rghanmisiz? Bu judayam qiziq albatta. Farzand uchun ota-onsa go'yoki barcha ehtiyojlarini qondira oladigan, ularning xohish-istiklarini bir zumda amalgalashuvchi zotdir. Biroq farzandingizning sizga bergen savollariga javob bermasangiz, yoki bo'lmasa har bir savolni eshitganingizda ularga do'q-po'psa bilan javob qaytarsangiz, boshqa savol bermasligini aytib urishib bersangiz o'ylab ko'ringchi, siz aslida qanday ota-onasiz? Yuqorida aytganimizdek, farzand uchun ota-onsa go'yoki bir sehrgar hisoblanadi-ki, bolalar ulardan har bir savolga javob, izoh kutadi. Chunki, bolalar dunyoni yanada tezroq anglashga harakat qiladi, har bir narsa ular uchun muhim yangilik hisoblanadi.

Ana shunday bir davrda siz ularning qiziqishlari, intilishlari, sodda qilib aytadigan bo'lsak ko'ngli bilan qiziqmas ekansiz bilingki, juda katta xatoga yo'l qo'ymoqdasiz. Negaki, aynan o'sha davrda bolalar daslabki dunyoqarashini siz bilan baham ko'ra boshlaydi. Endi o'ylab ko'ring siz farzandingiz kelajakda yaxshi inson, yaxshi kadr, bir so'z



bilan aytganda katta odam bo'lishini xohlaysiz, albatta. Xo'sh, unda nega ularning bu boradagi boshlang'ich fikrlarini o'zingiz chippakka chiqarayapsiz? Ularning bu hayotga bo'lgan hayratlarini jaxl bilan inkor etmoqdasiz. Aziz ota-onalar, shuni biling-ki, siz farzandingiz uchun faqat moddiy tomondan ta'minlab turib yaxshi ota-onsa bo'lib qolmaysiz, yoki bo'lmasa qisman e'tibor berib turib ulardan ko'p narsa talab qilishingiz ham noto'g'ri. Farzandingiz taqdiriga yo hayot, yo mamot aqidasi sifatida qarashingiz lozim. Birgina ularga yo'q, jim bo'l, meni tinch qo'y kabi salbiy javoblarining sizga bo'lgan ishonchni so'ndirishi, sizga bo'lgan munosabatning ham o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Demak, ota-onamga mening savollarim yoqmas ekan, baribir meni urushib beradi deya sizga savol ham bermay qo'yishadi. Bu bilan farzandlaringiz nafaqat savol berishdan, balki fikrlashdan ham to'xtab qoladi va ularda salbiy bo'lgan holatlar ro'y bera boshlaydi. Shu o'rinda shuni ham aytish kerakki, berilgan savollarga bilmasam degan javob ham bermasligingiz lozim. Bu javobning o'zi ham, bolada ota-onam bilmasligi mumkin degan fikr bilan sizga savol bermaslik holatiga, ya'ni ishonchsizlik holatiga kelib qolishi mumkin. Sizga farzandingiz juda ham ko'p savol berib sizni betoqat qilyaptimi? hech qachon bundan norozi bo'lmaning, aksincha, xursand bo'ling. Demak, sizning farzandingiz fikrlayapti, nimanidir bilishga intilayapti. Shunday ekan, qadrli ota-onalar, siz ham moddiy ham ma'naviy jihatdan farzandlaringizning ehtiyojlarini qondirishga majbursiz.

Agarda kelgusida farzandlaringizning komil inson bo'lishini xohlasangiz ertaga emas bugun va ayni paytda hozirdan savollarga shunday to'liqlik bilan javob bering-ki, ular savollarda barcha jihatlarni ko'ra olsin, yanada kengroq fikrlay olsin. Xurmatli ota-onalar, farzandlaringiz taqdiriga befarq bo'lmaning, zero ular vatanimizning ertangi kuni hisoblanadi. Qadriyatlarga bo'lgan muhabbat ham aynan tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Bolalarda onning rivojlanishi kichik davrdan boshlangani singari ularga e'tibor ham kichik davrdan bo'lishi lozim, Bolalarni yuksak ma'naviyatli qilib o'stirish, avvalo, oila ostonasidan boshlanadigan jarayon hisoblanadi. Bolalarga e'tibor berish oqibatida ko'plab yutuqlarga ijobjiy munosabatlarga erishish mumkin. Aks holda esa, buning aksini ko'rish mumkin, ya'ni salbiy oqibatlar ta'sirida yuzaga keladigan har bir tushunmovchiliklar ham insonning kelajagiga juda katta xavf solishi mumkin. Bolaga e'tibor berishda nafaqat oila a'zolari, ota-on, balki, butun mahalla, butun bir xalq, butun bir davlat mas'ul ekanligini hech birimiz unutmasligimiz kerak, chunki o'sha birgina inson butun hayotimizni o'zgartirishga qodir bo'lgan bir shaxs bo'lib yetishishi mumkin. Shuning barobarida, har bir bo'lib o'tayotgan jarayon, hodisa, holat, voqelik va barcha bo'lib o'tayotgan narsalarni his eta turib ularga o'z munosabatini bildira olish darajasiga yeta olish ham muhim sanaladi. Shunday ekan, biz bugundan farzandlarimizga e'tiborni kuchaytirib, ular bizga berayotgan har bir savollariga to'la-turkish javob berishga harakat qilishimiz va ularni o'zimizning kelajagimizni yuksaltiradigan inson sifatida ko'rishimiz lozim. Chunki, o'sha berilayotgan har bir javob ular uchun juda ham muhim hisoblanadi va ularning kelajagiga ham juda katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy ma'naviyat, milliy qadriyat insonning eng yuksak ko'rinishi hisoblanadi. Ana shunday milliy ruhda shakllanish bolalarning har biri uchun juda ham muhim hisoblangan holatdir. Insonning shakllanishida uning ongi muhim hisoblanadi, shu ong ta'sirida esa, inson ko'plab faoliyatlarini amalga oshiradi. shunday



ekan, inson bu faoliyatni amalga oshirishda o‘z bilim va tushunchalariga tayangan holda ish olib boradi. Shu sababli, har bir inson bu haqida yaxshilab o‘ylab ko‘radi va buning zamirida esa, ko‘plab yangi g‘oyalar yangi fikrlar yotishini o‘ylab ko‘radi. Shunday ekan, bular barchasi, eng avvalo, kichkinlik davrida bo‘lib o‘tadigan holat va hodisalar asosida qurilsa ajab emas.

Negaki, har bir insonning bolalikdagi o‘tmishi uning kelajakda kim bo‘lishi haqida ham ko‘rsatma bersa ajab emas, yoki bo‘lmasa, o‘sha kichkinlik paytida qandaydir bir salbiy oqibatlar uning butun hayoti davomida saqlanib qolishi, uni butun bir hayoti davomida bezovta qilib borishi ham mumkin. Shu sababli, bolalarning kichkinlik paytida ularga e‘tibor berib ularga katta ishlar qilishida ko‘mak berish va ularning fikrlarini ham inobatga olish dolzarb bo‘lgan muammo sanaladi hamda ular bilan kelishgan holda ko‘plab ishlar olib borish muhim. Shu bilan birga ularni fikrlarini ham qaysi bir ma’noda o‘rgangan holda yonma-yon fikran ish olib borish zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E.E.G‘oziyev, R.Toshimov. Psixologiya - Toshkent 2005
2. Abdurauf Fitrat. Oila risolasi – Toshkent 2000
3. F.Abdurahmonov, Z.Abdurahmonova. Din Psixologiyasi – Toshkent 2011
4. O.Bo‘riyev, O‘zbek oilasi tarixi – Toshkent 1995
5. X.G.Sharafuddinova. Umumiy psixologiya – Toshkent 2022
6. E.E.G‘oziyev. Umumiy psixologiya – 2002
7. The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religious beliefs in a child. Sh.Xudoyqulova, M.Saydaliyeva – Eurasian Scientific Herald - 2023